O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Rektor Sh.Sirojiddinov

2023-yil "___" avgust

# "XATSHUNOSLIK EKSPERTIZASI AMALIYOTI"

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| Ta'lim sohasi: | 230 000 – Tillar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60230700 – Amaliy filologiya |

Toshkent-2023

| Fan kodi<br>302 XEA 3 4 | | Fan turi<br>Tanlov | | | Ta'lim tili<br>o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili<br>2023/2024 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Fanning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 5 | Xatshunoslik ekspertizasi | 4 | 4 | 60 | 20 | 10 | 30 | 0 | 60 | 120 |
| | **Jami:** | **4** | **4** | **60** | **20** | **10** | **30** | **0** | **60** | **120** |

## 1. FANNING MAZMUNI

"Xatshunoslik ekspertizasi amaliyoti" fani talabalarga yozuv va uning shakliy ifodasi, yozuvlardagi shaxsiy identifikatsion belgilar, yozuvga ta'sir o'tkazuvchi omillar, kriminalistik va lingvistik nuqtayi nazardan gumonlanuvchi namunalarini solishtirish, taqqoslash, atributlarini belgilash va yagona identifikatsiyani shakllantirish malakasiga malakasiga ega bo'lish, kriminalistika va ekspertizaga oid amaliy materiallarni ekspertiza qilish nuqtayi nazardan tadqiq etish, anonim yozuv bo'yicha, yozuvlar bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha konfliktli matnlarni tahlil qila olish, turli yosh toifalarida yozuvning identifikatsion xoslanishini farqlay olish, qo'l yozuvining sotsial psixologik, fiziologik xoslanishi differensatsiyasini aniqlash, qo'l yozuvi va undagi namunalarga qarab yagona muallif kim ekanligini aniqlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni xatshunoslik ekspertizasi nazariy-amaliy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, lingvistik ekspertologiya tarkibida xatshunoslik ekspertizasi nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga xatshunoslik ekspertizasi fanining ahamiyati, qo'lyozma matnlarda belgilar, umumiy va xususiy belgilarning o'ziga xosligi va uslubiyatining nazariy asoslariga oid bilim va tushunchalar berish, xatshunoslik ekspertizasining lingvistik ekspertologiyaga munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda ikki qo'lyozma ko'rinishidagi yozuvlarda o'zaro taqqoslash, aynan yoki o'xshash, farqli ekanligini asoslashga munosabati kabilarni bilish, grammatik qoidalarga tayanib, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR



– Xatshunoslik ekspertizasi va eksperimental tadqiqotlarda metodik tayyorgarlik asoslaridan xabardor bo'lish, xatshunoslik ekspertizasi bilan bog'liq nazariy va eksperimental bilimlarga ega bo'lish, ikki namunaga berilgan qo'l yozuvlari bir shaxsga tegishli/ tegishli emasligini, bog'liqligini dalillay olish;

– turli qo'l yozuvi namunalarini tahlil qila olish, yozuvning identifikatsion belgilarini aniqlay olish;

– ekspertiza, lingvistik ekspertiza, grafologiya, xatshunoslik ekspertizasi bilan bog'liq jarayonlar bo'yicha original ilmiy ishlarni tahlil qila olish, kattalar va bolalarda yozuvning xoslanishini baholay olish;

– Qo'l yozuvlarini ekspert sifatida ko'rib chiqish, baholay olish, ekspert oldiga qo'yilgan savollarga aniq va obyektiv javob bera olish, ekspert xulosalarini shakllantira olish **malakalariga ega bo'lishi** zarur.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

"Xatshunoslik ekspertizasi" fanini o'tishda interfaol metodlar, xususan, nutq bilan ishlash, so'rovnoma, anketa, lingvistik tahlil, psixolingvistik analiz, matnning psixologik tahlili, og'zaki so'rov, yozma va og'zaki nutqni o'stirish, analiz, sintez, statistik, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, xatshunoslik ekspertizasi malakalarni rivojlantirishga qaratilgan boshqa metod va usullardan foydalaniladi.

## 4. TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Xatshunoslik ekspertizasi fanidan 120 soat (5-semestrda 120) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egalagan talabaga 4 (5-semestrda 4) kredit beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** 2 ta.

1-oraliq nazorat og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Xatshunoslik ekspertizasi fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga og'zaki javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savollariga talaba og'zaki javob beradi, Variant savolnoma savollari xatshunoslik ekspertizasi mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 10 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Og'zaki nazoratni baholash mezoni: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob

bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

2-oraliq nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Xatshunoslik ekspertizasi fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savollariga talaba yozma javob beradi, Variant savolnoma savollari xatshunoslik ekspertizasi mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 10 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma nazoratni baholash mezoni: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadiTestni baholash mezoni Talaba jami savollardan 28-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 24-27 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-23 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

**Yakuniy nazorat:** Xatshunoslik ekspertizasi amaliyoti fani bo'yicha har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Talabaga login va parol orqali tizimga kirish imkoniyati yaratiladi. Test topshiriqlari savollari xatshunoslik ekspertizasi mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 1 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin..Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezoni Talaba jami savollardan 28-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 24-27 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-23 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

***Izoh:*** *Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

5 baho. Talaba xatshunoslik ekspertizasiga oid bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirgan, xatshunioslik ekspertizasi birliklarini tizimlashtira oladi va xatshunoslik ekspertizasiga oid bilimlarini nazariy jihatdan aniq va mantiqiy bayon qila oladi. Amaliy jihatdan xatshunoslik ekspertizasi ko'nikmalarini to'g'ri qo'llay



oladi, xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bera oladi. Shuningdek, xatshunoslik ekspertizasiga oid qiyin masalalarga yechim topa oladi, xatshunoslik ekspertizasibo'yicha ilmiy terminologiyani erkin ishlata oladi.

4 baho. Talaba xatshunoslik ekspertizasiga oid bilimlarni o'zlashtirgan, xatshunoslik ekspertizasi birliklarini tizimlashtira oladi va xatshunoslik ekspertizasiga oid bilimlarini bayon qila oladi. Amaliy jihatdan xatshunoslik ekspertizasi ko'nikmalarni qo'llay oladi, xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha savollarga javob bera oladi. Shuningdek, xatshunoslik ekspertizasiga oid murakkab bo'lmagan masalalarga yechim topa oladi, xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha ilmiy terminologiyani qisman ishlata oladi.

3 baho. Talaba xatshunoslik ekspertizasi bilimlarni sayoz o'zlashtirgan, xatshunoslik ekspertizasi tushunchalarini tizimlashtirishda, xatshunoslik ekspertizasiga oid bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan bog'lashda, xatshunoslik ekspertizasiga oid oddiy masalalarni hal qilishda qiynaladi, xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha ilmiy terminologiyani to'g'ri qo'llay olmaydi.

2 baho. Talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 5-SEMESTR

### 1. Ma'ruza mashg'ulotlari

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Xatshunoslik ekspertizasining fan sifatida shakllanishi, obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, fanlar tizimidagi o'rni. | Xatshunoslik ekspertizasi, xatshunoslik ekspertizasi obyekti, xatshunoslik ekspertizasi predmeti, xatshunoslik ekspertizasining maqsadi va vazifalari, xatshunoslik ekspertizasining fanlar tizimidagi o'rni. | 2 |
| 2 | Xatshunoslik ekspertizasi-lingvistik ekspertologiyaning tarkibiy qismi sifatida. Xatshunoslik ekspertizasining lingvistik ekspertologiyaning boshqa turlari bilan aloqasi. Jahon va o'zbek lingvistik ekspertologiyasida xatshunoslik ekspertizasining shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari. | Dunyo tilshunosligi, dunyo tilshunosligida amaliy psixolingvistik tadqiqotlar, dunyo tilshunosligida psixolingvistik izlanishlar | 2 |
| 3 | Yozuv va qo'l yozuvi haqida | Xatshunoslik ekspertizasi, xatshunoslik | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | tushuncha. Qo'l yozuvining individualligi va nisbiy barqarorligi | ekspertizasida nutqiy faoliyat tadqiqi, xatshunoslik ekspertizasida nutqiy faoliyat turlari, fikr ifodalash modellari. | |
| 4 | Qo'lyozmaning muallifini aniqlash va asoslash. Bir shaxs tomonidan bajarilgan yoki bajarilmaganlik faktlari. Xatshunoslik ekspertizasida ekspert savollarini shakllantirish mezonlari. | Nutqni idrok etish, nutqni tushunish, Nutqni yaratish. Nutq yaratilishi va idrok etilishidagi individual farqlar. | 2 |
| 5 | Qo'lyozuvlarida umumiy belgilar tasnifi. | Xatshunoslik ekspertizasi, Psixolingvistika, Patopsixolingvistika, Etnopsixolingvistika. | 2 |
| 6 | Qo'lyozmalarda xususiy belgilar tasnifi. | Nutq, nutq ontogenezi, tilni o'zlashtirish, xatshunoslik ekspertizasi tahlil. | 2 |
| 7 | Xatshunoslik ekspertizasida yozuvni Lingvistik va yuridik jihat tekshirish metodikasi. | So'z va so'z guruhlari, eksperimental o'rganish, gap, matn, eksperimental tadqiq. | 2 |
| 8 | O'zgartirilgan yozuv tadqiqot metodologiyasining xususiyatlari | Yozuvning tabiiy o'zgarishi<br>Harfni ataylab o'zgartirish | 2 |
| | Qo'l yozuvini o'rganishning ayrim turlari metodologiyasining xususiyatlari | Qisqa matnlar va raqamli yozuvlarni tadqiq qilish<br>Ko'p ob'ektli qo'l yozuvini o'tkazish xususiyatlari<br>mutaxassislik<br>Qo'lyozmalarni erkak va ayolga ajratish usullari | 2 |
| 10 | Grafologiya va xatshunosik ekspertizasi | Grafologiya, xatshunoslik | 2 |
| | | Jami: | 20 st. |

### 2. Amaliy mashg'ulot mavzulari

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | . Xatshunoslik ekspertizasi turlari. | Imzolar ekspertizasi, namunalar | 2 |
| 2 | Xatshunoslik ekspertizasi-lingvistik ekspertologiyaning tarkibiy qismi sifatida | Xatshunoslik ekspertizasi, psixologik, lingvistik, manba. | 2 |
| 3 | Qo'lyozma matnlarda identifikatsiya belgilari. Qo'lyozma matnlarda sodda va murakkab harf elementlari tasnifi. | Identifikatsiya, sodda, murakkab | 2 |
| 4 | Qo'lyozmalarda shaxsning psixofizologik ta'sir omillarini aniqlash. | Imzolar bo'yicha ekspertizalar tasnifi | 2 |
| 5 | Qo'lyozuvida umumiy alomatlar | Umumiy belgilar | 2 |
| 6 | Qo'lyozuvida xususiy alomatlar | Xususiy belgilar | 2 |
| | Xatshunoslik ekspertizasida o'zgartirilgan yozuv | Tabiiy va qasddan o'zgarish | 2 |
| 7 | Qo'lyozma matnlarda identifikatsiya, diagnostika va tasnif masalasi. Qo'lyozmalarni tekshirish uchun namuna turlari. | Dastlabki trekshirish, tahlil bosqichlari | 2 |
| 8 | Oddiy sharoitlarda amalga oshiriladigan katta va o'rta hajmli matnlarni aniqlash usullari | Katta haj,li matn, kichik hajmli matn | 2 |
| 9 | Alfavit matnlarini o'rganishda qo'l yozuvini qasddan o'zgartirish faktini aniqlash usullari | Qasddan o'zgartirish, o'zgartirilganlik faktori | 2 |
| 10 | Kichik hajmli qo'lyozmani o'rganish texnikasi | Imzolar, xatlar, namunalar | 2 |
| 11 | Ijrochi shaxsini aniqlash usullari | Xat muallifi va ijrochisi | 2 |
| 12 | Ehtimollik-statistik usullarni qo'llash xususiyatlari | Ehtimoliy xulosa, taxmin | 2 |
| 13 | Qo'l yozuvi ekspertizasi metodologiyasining umumiy qoidalari | Birinchi bosqich - o'rganishning dastlabki bosqichi Ikkinchi bosqich - batafsil o'rganish bosqichi<br>Uchinchi bosqich - tadqiqot natijasini baholash bosqichi va ekspert xulosasini shakllantirish To'rtinchi bosqich - tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish bosqichi | 2 |
| 14 | Qo'l yozuvini o'zgartirish turlari Qo'lyozmalarning noodatiy ijrosi shakily va lingvistik belgilari | O'zgartirilgan qo'l yozuvini o'rganish metodologiyasining umumiy qoidalari | 2 |
| 15 | Noodatiy yozuv qo'li bilan yaratilgan qo'lyozmalarni shakily va lingvistik belgilarini o'rganish xususiyatlari | Qasddan o'zgartirilgan qo'lyozmada kursiv usulda qilingan qo'lyozmalarning ijrochisini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari | 2 |
| | | Jami: | 30 st. |

## 2. Seminar mashg'ulotlar

| № | Seminar mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Matn avtorizatsiyasi va xatshunoslik ekspertizasi. | Xatshunoslik ekspertizasi konsepsiyalari, metodlari, xatshunoslik ekspertizasida assotsianistik qarashlar. | 2 |
| 2 | Lotin grafikasi bo'yicha shakllangan yozuv dinamikasi. Rus grafikasiga asoslangan yozuvlarda xatshunoslik ekspertizasi. | Xatshunoslik ekspertizasi, psixologik, lingvistik, manba. | 2 |
| 3 | Xatshunoslik ekspertizasida grafometriya. Xatshunoslik ekspertizasida gologramma. 7. Xatshunoslik ekspertiozasida polifonimlar, tramplinlar Yozuvlarda drenajlarni baholash. | Xatshunoslik ekspertizasida asosiy terminlar | 2 |
| 4 | Imzolarda haqiqiy va koadyutant imzolarni farqlash. | Imzolar bo'yicha ekspertizalar tasnifi | 2 |
| 5 | Yozuvning gender xoslanishi, lingvistik belgilari | So'z tanlanishi, yozuvning gender xoslanishi | 2 |
| | | Jami: | 10 st. |

## 3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar"ning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan tadqiqot ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- xatshunoslik ekspertizasi tadqiqi tarixi materiallari bilan mustaqil ravishda tanishish, ularni konspektlashtirish;
- amaliy psixolingvistik ko'nikmalarni shakllantirish;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- muayyan mavzu bo'yicha tezis yoki maqola tayyorlash;
- amaliy mavzular bo'yicha ijodiy ishlash;
- belgilangan mavzular bo'yicha taqdimot tayyorlash.

Taqdimotlar seminar mashg'ulotlarida muhokama qilinadi va baholanadi.

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O'quv mashg'ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Xatshunoslik ekspertizasi markaziy sohalari | seminar | Xatshunoslik ekspertizasi, markaziy sohalar, | 2 |
| 2 | Grafologiya va xatshunoslik ekspertizasi | seminar | Grafologik ekspertiza | 2 |
| 3 | Qo'lyozuvida identifikatsion belgi tiplari | seminar | Individual belgilar | 2 |
| 4 | Qo'l yozuvida allograflar | seminar | Turli namunalar, turli harf shakllari | 2 |
| 5 | Qo'l yozuvida drenajlar | seminar | Drenajllar tasnifi | 2 |
| 6 | Yozuvning psixologik xususiyatlari | seminar | Maxsus populyatsiyalar, til, tinglash. | 2 |
| 7 | Nazariy yondashuvlar | seminar | Nazariy yondashuv, amaliy tadqiqotlar, konsepsiyalar. | 2 |
| 8 | Yozuvning fiziologik xususiyatlari | seminar | Nutqdagi xatoliklar, fonetik, grammatik, sintaktik, leksik. | 2 |
| 9 | Yozuvning sotsial xususiyatlari | seminar | Nutq, leksik qo'llanishlar, so'z, birliklar. | 2 |
| 10 | Yozuvning gender xususiyatlari (ayollar og'zaki va yozma nutqi) | seminar | Nutq, Morfologik ishlov, asos, qo'shimcha. | 2 |
| 11 | Yozuvning gender xususiyatlari (erkaklar og'zaki va yozma nutqi) | seminar | Nutq, sintaktik ishlov, gapni tushunish, gap tuzish | 2 |
| 12 | Yozuvning yoshga xos xususiyatlari (bolalar og'zaki va yozma nutqi) | seminar | Sintaktik ishlov berish, xotira mexanizmlari, birliklarni anglash. | 2 |
| 13 | Yozuvning yoshga xos xususiyatlari (o'smirlar og'zaki va yozma nutqi) | seminar | Nutqni qayta ishlash, til, tushunish, nutq. | 2 |
| 14 | Yozuvning yoshga xos xususiyatlari (o'rta yosh toifasi og'zaki va yozma nutqi) | seminar | Xatshunoslik ekspertizasi, eksperimental usullar, matn tahlili. | 2 |
| 15 | Yozuvning yoshga xos xususiyatlari (keksalar og'zaki va yozma nutqi) | seminar | Tilni o'rganish, tildan foydalanishsh, til mexanizmlari. | 2 |
| 16 | Yozuvning fiziologik xususiyatlari (qandli diabet, yurak xastaliklarida) | seminar | Miyada, til, nutq, idrok. | 2 |
| 17 | Yozuvning fiziologik xususiyatlari (homiladorlik davrida) | seminar | Psixolingvistik tadqiqotlar, texnik tomonlar, tadqiqot usullari, statistik hisobotlar. | 2 |
| 18 | Yozuvning sotsial xususiyatlari (shifokorlar og'zaki va yozma nutqida) | seminar | Psixolingvistik tadqiqotlar, tanqidiy o'qish, baholash ko'nikmalari, muloqot qilish qobiliyati. | 2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 19 | Yozuvning sotsial xususiyatlari (arxitektor va dizaynerlar og'zaki va yozma nutqida) | seminar | Xatshunoslik ekspertizasi, fan, adabiyotlar tahlili. | 2 |
| 20 | Yozuvning sotsial xususiyatlari (haydovchilar og'zaki va yozma nutqida) | seminar | Xatshunoslik ekspertizasi, zamonaviy yo'nalishlar, ruhiy holat. | 2 |
| 21 | Yozuvning sotsial xususiyatlari (sotuvchilar og'zaki va yozma nutqida) | seminar | Faoliyat, psixologik nazariya, nutqiy faoliyat. | 2 |
| 22 | Yozuvning sotsial xususiyatlari (xattot, muharrir , rassom og'zaki va yozma nutqida) | seminar | Matnni o'rganish, amaliy psixolingvistik yondashish, ruhiy holatni bildiruvchi lingvistik birliklar. | 2 |
| 23 | Yozuvning anatomic xususiyatlari | seminar | Nutqiy faoliyat, faoliyat turlari, munosabat. | 2 |
| 24 | Yozuvning anatomik xususiyatlari (chapaqay toifadagilar og'zaki va yozma nutqida) | seminar | Inson, lisoniy qobilyat, lisoniy qobilyatning fanda o'rganilishi. | 2 |
| 25 | Yozuvning yoshga xos xususiyatlari (OTM talabalari og'zaki va yozma nutqida dinamik o'zgarish) | seminar | Mental leksikon tushunchasi, aqliy faoliyat, psixik jarayon. | 2 |
| 26 | Akademik litsey, kasb-hunar texnikumi talabalari og'zaki va yozma nutqida dinamik o'zgarish | seminar | Bolalar, nutq, innovatsiya. | 2 |
| 27 | Maktab o'quvchilari og'zaki va yozma nutqida dinamik o'zgarish | seminar | Nutqiy faoliyatning mexanizmlari, nutq jarayoni, nutq-birliklari, til birliklari. | 2 |
| 28 | Umumiy alomatlar | seminar | Kommunikativ bilish, kognitiv bilish, aqliy salohiyat. | 2 |
| 29 | Xususiy alomatlar | seminar | Kayfiyat, matnlar, tushunish, ta'sir. | 2 |
| 30 | Imzolar tadqiqiq, koadyutant | seminar | Matn, kognitiv tahlil, psixik holat, aqliy salohiyat. | 2 |
| | | | Jami: | 60 st. |

## 6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar:

1. Серегин. В.В. и др.Почерковедческая экспертиза Учебник. – Волгоград., 2007.



2. Баранов, А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст] : учеб. пособие / А. Н. Бара-нов. — М. : Флинта : Наука, 2007. — 592 с
3. Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза.Монография/ – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2009. – С. 252.
4. Цена слова: из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации / под ред. М. В. Горбаневского. 3-е изд., испр. и доп. М.: Галерея, 2002. 424 с.
5. Coulthard M. and Johnson A. Introduction to forensic linguistic.book. NY.: Routledge- 2007. P 250

### Qo'shimcha adabiyotlar:

6. O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi;
7. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;
8. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksi;
9. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza o 'tkazish. Nazariya va amaliyot. O 'quv qo 'llanma.-T.:TDYul, 2011. 130 b.
10. Astanov I.R. Zo 'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlari va ularni tergov qilishning o 'ziga xos jihatlari. O 'quv qo 'llanma. // Mas'ul muharrir: yu.f.d. G.Z. To 'laganova –T.: TDYuU, 2015. 140 bet;
11. Alimova R., Otaxo'jaev S. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 131 b.
12. Галяшина, Е.И. Понятие судебной лингвистической экспертизы[Электронный ресурс] / Е.И. Галяшина. – Режим доступа: http://www.rusexpert.ru/index.php?idp=content&id=202 – (01.12.2013)
13. Jan Svartvik The Evans statements.Goterborg-1968.p27
14. James T.An introduction to forensic science:the sciences of criminalistics. 2007-2012. P20
15. Nini A.Authorship profiling ina forensic context. Doctor of Philosophy.autoref....dis. March-2004. .–P250
16. Olson John.Forensic linguistic.book. NY.: ContinuumInternationalPublishingGroupTheTowerBuilding – P265
17. Голев, Н.Д. Об объективности и легитимности источников лингвистической экспертизы / Голев Н.Д. // Юрислингвистика -3 : Проблемы юрислингвистической экспертизы : Межвузовский сборник научных трудов / Под ред. Н.Д. Голева. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2002. – С. 14-29.

### III Elektron ta'lim resurslari:

18. https://www.cambridge.org/core/journals/language-and-cognition
19. https://www.cambridge.org/core/journals/bilingualism-language-and-cognition
20. https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-child-language
21. http://en.wikipedia.org/wiki/Psycholinguistics
22. http://www.utexas.edu/courses/linguistics/resources/psycholing
23. http://www.psycholinguisticsarena.com

## 7. O‘QUV DASTURI HAQIDA MA’LUMOT

| |
|---|
| O‘quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023___ yil “___” “______” dagi “___” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **“Amaliy filologiya” kafedrasi mudiri, f.f.d., prof.**<br>B.Mengliyev ______________ *(imzo)* |
| **Tuzuvchi:**<br>K.Musulmonova ______________ *(imzo)*<br>“Amaliy filologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d(PhD). |
| **Taqrizchilar:**<br>Muhamedova S. ______________ *(imzo)*<br>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.<br>Raupova L. ______________ *(imzo)*<br>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori. |